

**“O‘GAY ONA” ARXETIPINING ARXETIPIK
TRANSFORMATSIYA MODEL (ATM) YORDAMIDA QIYOSIY
TALQINI**

Achilova Gulhayo Ismoilovna

Toshkent davlat transport universiteti tayanch doktoranti

[*guliachilova9@gmail.com*](mailto:guliachilova9@gmail.com)

[*tel:908065655*](tel:908065655)

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Arxetipik transformatsiya modeli (ATM) nazariy-metodologik asos sifatida taklif etilib, u Karl Yungning arxetiplar haqidagi g‘oyalari, Erik Nyumannning “Buyuk Ona” konsepsiyasi hamda narrativ terapiya yondashuvlari bilan uyg‘un holda ishlab chiqilgan. Tadqiqot Elis Manroning “Shohona kaltaklar” (“Royal Beatings”) va Normurod Norqobilovning “Yangi ertak” hikoyalarini qiyosiy tahlil qilib, o‘gay onalik arxetipining salbiy va ijobiy talqinlarini bosqichma-bosqich tahlil qiladi. Tahlil jarayonida arxetipik maydonning faollashuvi, buzilishi, psixologik qayta ishlanishi, o‘tish bosqichi va yakuniy integratsiyasi jarayonlari ko‘rsatib beriladi. Maqola o‘gay onalik obrazining badiiy matnda qanday o‘zgarishi va inson ruhiy tiklanish jarayoni bilan bog‘liqligini ochib beradi.*

Kalit so‘zlar: *arxetip, o‘gay onalik, arxetipik transformatsiya modeli, narrativ terapiya, dekonstruksiya, o‘tish bosqichi, integratsiya.*

Abstract

This article introduces the Archetypal Transformation Model (ATM) as a methodological framework developed in alignment with Jung’s archetypal theory, Neumann’s concept of the “Great Mother”, and contemporary narrative therapy approaches. Through a comparative analysis of Alice Munro’s “Royal Beatings” and Normurod Norqobilov’s “New tale” (“Yangi ertak”), the study examines how the step-by-step transformation of the stepmother archetype unfolds from trauma to healing. The analysis traces the activation, deconstruction, psychological

processing, liminal transition, and final integration of archetypal scenarios. The article demonstrates how literary representations of stepmotherhood serve as symbolic spaces for both trauma narration and psychological reconstruction.

Keywords: *archetype, stepmotherhood, Archetypal Transformation Model, narrative therapy, deconstruction, liminality, integration.*

Kirish. Arxetipik Transformatsiya Modeli (ATM) — bu tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan metodologik yondashuv bo‘lib, Karl Gustav Yungning arxetip nazariyasi, Nyumannning “Buyuk Ona” haqidagi konsepsiyasi hamda zamonaviy narrativ terapiya (White, M. & Epston, D, 1990) yondashuvlari bilan hamohang ravishda shakllangan. Model arxetipik ssenariylarning qanday faollashishi, ularning dekonstruksiya qilinishi, psixologik qatlamda qayta ishlanishi, o‘zgarish bosqichidan o‘tishi va yakuniy integratsiya jarayonlarini bosqichma-bosqich tahlil qiladi. Shu nuqtai nazardan, kanadalik yozuvchi Elis Manroning “Shohona kaltaklar” (“Royal Beatings”) va Normurod Norqobilovning “Yangi ertak” hikoyalari har ikkisida bir-biridan farqli ijobiy va salbiy obrazlar ko‘rinishida bo‘lsa ham “o‘gay onalik” arxetipiga murojaat qilgani bois qiyosiy tahlil uchun tanlab olindi.

ATM ning birinchi bosqichi orqali tahlil qilsak, har ikkala hikoyada *arxetipik maydonning faollashuvini* ko‘rish mumkin. Manro hikoyasida Rouz “bola arxetipi” sifatida tasvirlanadi. Uning qismati klassik ertaklardagi voqealarni eslatadi. U ona arxetipining “soya” xususiyatiga ega o‘gay onasi Flo va jazo ijrochisi bo‘lgan otasi qarshisida begunoh va ojiz obraz sifatida tasvirlanadi. Hikoya boshlanishidan “yovuz o‘gay ona va begunoh bola” qolipi faollashadi (Propp, 1968). Norqobilovda esa onasidan ayrilgan Oydin ismli qizcha o‘gay ona haqidagi o‘z xavotirini ertaklar orqali talqin qiladi va “Zumrad va Qimmat” ertagidagi kabi yovuz o‘gay onaning hayotiga kirib kelishini qo‘rquv bilan kutadi. Shunday qilib, har ikkala hikoya ham mifologik ertak bayonini tasvirlaydi, ammo keyinchalik hikoyalar syujeti turli yo‘nalishda kechadi. Keyingi *dekonstruksiya* bosqichida Manro hikoyasida odatiy ertak qolipi buziladi, o‘gay ona Floning qizga nisbatan

munosabati shaxsiy adovat sababidan emas, balki yillar davomida orttirilgan ijtimoiy jarohat mahsuli sifatida talqin qilinadi va Hatchen (1988) ta'riflagan “dekonstruktiv narrativ” xususiyatlarni tasdiqlaydi. Norqobilovda esa “Zumrad va Qimmat” ertagi Oydinning ongida jonlanadi, ammo real voqelik buni rad etadi, chunki jazo sahnasi amalga oshirilishi kerak bo'lgan maydon “o'rmon”ning yo'qligi ertak ssenariysining amalga oshmasligini bildiradi. Shu orqali qizning xayolidagi qo'rquv holati dekonstruksiya qilinadi va arxetipik qolip parchalanadi.

Modelning *psixologik qatlam* bosqichi hikoyalarda o'gay onalik tajribasining inson ruhiyatiga qanday ta'sir qilishini chuqur ochib beradi. Elis Manroning “Royal Beatings” hikoyasida Rouz o'gay onasi sabab otasining “shohona kaltaklari”ni boshidan kechiradi. Bu jismoniy og'riq uning ichki iztirobini tashqi shaklga chiqaradi — og'riq tan xotirasiga o'rnashib, har safar unga o'sha lahzani eslatadi. Rouz uchun bu faqat jazo emas, balki o'zini tushunishning og'riqli nuqtasidir. U o'gay onasi Floni yovuz deb o'ylasa-da, vaqt o'tgan sari uning ham og'rig'ini sezadi. Shunday qilib, “yomon” Flo va “yaxshi” xotiralar o'rtasida ichki kurash paydo bo'ladi. “Royal beating” so'zi Rouz tilida nafaqat esdalik, balki himoya vositasiga aylanadi — so'zlash orqali u o'z dardini boshqarishni o'rganadi. Keyinchalik u bu voqeani hikoyaga aylantiradi. So'zlar unga kuch beradi, og'riqni nazorat qilish, uni boshqalarga aytish orqali engib o'tish imkonini yaratadi. Shu tarzda Rouz og'riqni hikoya qilish orqali o'zini davolaydi.

Normurod Norqobilovning “Yangi ertak” hikoyasida esa jarayon boshqacha kechadi. Oydin ismli qizcha o'gay onasidan ertaklardagi kabi yovuzlikni kutadi, ammo hayot unga kutilmagan tarzda mehr ko'rsatadi. O'gay ona unga “bolajonim” deb murojaat qiladi, marhuma onaning suratini devorga qayta osadi, unga sovg'a beradi. Shu harakatlarda iliqlik, mehr va e'tibor mujassam. Bu marosimga o'xshash mayda harakatlar Oydinning qo'rquvini kamaytiradi, o'gay onani dushman emas, himoya manbai sifatida qabul qilishga yordam beradi. Surat, sovg'a va quchoq — bularning barchasi yo'qotilgan onalik va yangi mehr o'rtasida ko'prikk bo'ladi. Oydinning onalar haqidagi tasavvuri asta-sekin o'zgaradi, u endi yo'qotish haqida emas, mehr va qabul qilish haqida o'ylay boshlaydi. Shu jarayon orqali u ichida

xotirjamlikni topadi. Har ikkala hikoyada turlicha yo‘nalishlarda tasvirlangan bo‘lsa ham ruhiy tiklanish markazda turadi. Rouz o‘z og‘rig‘ini hikoya qilib yengsa, Oydin mehrni qabul qilib, yuragini yumshatadi. Ikkisi ham biri og‘riqni anglab, ikkinchisi kechirimni tanlab o‘gay onalik haqidagi eski, qo‘rquvga asoslangan tasavvurni yangilaydi. Shu tariqa har ikki yozuvchi ham inson ruhiyatidagi eng nozik o‘zgarishlarni, og‘riq va shifo o‘rtasidagi noaniq, ammo muhim o‘tish bosqichini badiiy tarzda ifodalaydi.

Elis Manroning “Royal Beatings” hikoyasida jazo sahnasi qahramon hayotidagi keskin *o‘zgarish nuqtasiga* aylanadi. Bu paytda vaqt go‘yo to‘xtagandek, atrofdagi tovushlar, ranglar, so‘zlar xiralashadi. Rouz o‘zini bolalikning xavfsiz dunyosidan chiqib, og‘riq va kattalar dunyosining haqiqatiga kirib borayotgandek his qiladi. Otasining harakati, onasining sukuti, barchasi marosimga o‘xshab ketadi. U og‘riqni his qilarkan, bu og‘riq unga nimanidir anglatayotgandek bo‘ladi. “Royal beating” – “shohona kaltak” iborasi og‘riqni yumshatadi, lekin shu bilan birga uni yashiradi ham. Rouz bu tajribani nafaqat tanasi, balki ongida ham kechiradi. U endi kimnidir butunlay “yaxshi” yoki “yomon” deb ajrata olmaydi. Onasining ham, otasining ham o‘z og‘rig‘i, sabab va cheklovlari borligini sezadi. Shu paytdan boshlab u dunyoni murakkabroq ko‘ra boshlaydi.

Normurod Norqobilovning “Yangi ertak” hikoyasida *o‘tish jarayoni* boshqacha kechadi. Oydin o‘gay onadan yomonlik kutadi, lekin hayot unga kutilmagan iliqlikni taqdim etadi. O‘gay ona unga “bolajonim” deb murojaat qiladi, marhuma onaning suratini devorga qayta osadi, mehr bilan yonida bo‘ladi. Shu harakatlarning o‘zi kichik bo‘lsa ham, qizcha uchun chuqur ta’sirlidir. Oydin uchun bu mehr ishonchning ilk belgisi bo‘lib, surat, sovg‘a, quchoqlash kabilarning hammasi o‘tmishdagi yo‘qotish bilan hozirgi mehr o‘rtasida ko‘prik yaratadi. Qizaloq asta-sekin o‘gay onani yovuz emas, balki mehrli inson sifatida qabul qiladi. Uning ichidagi “yovuz o‘gay ona” haqidagi eski tasavvur yemiriladi, o‘rnini xotirjamlik va qabul hissi egallaydi.

Ikkala hikoyada ham o‘tish bosqichi o‘zgarishning markaziy nuqtasidir. Manroda u og‘riq va sukut orqali yuz beradi; Norqobilovda esa mehr va iliqlik

orqali. Rouz og'riqni nomlab, uni so'zga aylantiradi va shu orqali o'zini tiklaydi. Oydin esa mehrni qabul qilib, qo'rquvni yengadi. Har ikki holatda ham qahramon ichki bo'linishdan chiqib, dunyoni yaxlitroq, insoniyroq ko'ra boshlaydi. Endi ular uchun "yovuz" yoki "yaxshi" degan sodda ajratish o'rnini tushunish, kechirim va murakkab haqiqatni qabul qilish egallaydi. Bu o'tish insonning ruhiy ulg'ayish jarayoni, ichki yarashuv sari qadamdir.

Xulosa. Arxetipik transformatsiya modeli (ATM) ushbu ikki hikoyada onalik va o'gay onalik obrazining ichki o'zgarishlarini bosqichma-bosqich yoritib beradi. Model arxetipik ssenariylarning qanday paydo bo'lishi, og'riq va qo'rquv orqali qayta anglanishi, hayotiy tajriba yordamida yangilanishi va oxir-oqibat ichki tinchlikka olib kelishini ko'rsatadi. Manroda bu jarayon tildan, so'zlash va hikoya qilishdan boshlanadi; Norqobilovda esa muloqot, teginish va mehr orqali shakllanadi. Ikkisi ham "o'gay onalik" arxetipini yagona, qat'iy qolip sifatida emas, balki o'zgaruvchan, insoniy tajriba sifatida ko'rsatadi. Demak, ATM modeli adabiy tahlil uchun universal vosita sifatida arxetiplarni faqat ramz yoki mif darajasida emas, balki inson ruhiyatining o'sish jarayonida faol harakatlanuvchi, o'zgaruvchan tuzilma sifatida ochib beradi. Munro va Norqobilov misolida bu model o'gay onalik obrazining travmadan shifo, qo'rquvdan kechirim, og'riqdan anglash sari bo'lgan yo'lini aniq ko'rsatadi. Shu tariqa, har ikkala hikoya insoniyat tajribasidagi eng qadimiy arxetip bo'lgan onalik zamonaviy adabiyotda qanday yangicha, chuqur va insoniy ma'nolarga ega bo'lishini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Fairclough, N. Discourse and Social Change. – Cambridge: Polity Press, 1992.
2. Freud, S. Beyond the Pleasure Principle. – London: Hogarth Press, 1955 (orig. 1920).
3. Hutcheon, L. A Poetics of Postmodernism: History, Theory, Fiction. – New York: Routledge, 1988.

4. Jung, C. G. The Archetypes and the Collective Unconscious. – Princeton: Princeton University Press, 1959.
5. Klein, M. The Psycho-Analysis of Children. – London: Hogarth Press, 1932.
6. Munro, A. Alice Munro's Best: Selected Stories. – Toronto: McClelland & Stewart, 2006. – 537 p.
7. Neumann, E. The Great Mother: An Analysis of the Archetype. – Princeton: Princeton University Press, 1955.
8. Propp, V. Morphology of the Folktale. – Austin: University of Texas Press, 1968.
9. Turner, V. The Ritual Process: Structure and Anti-Structure. – Chicago: Aldine, 1969.
10. White, M., & Epston, D. Narrative Means to Therapeutic Ends. – New York: Norton, 1990.
11. Норқобилов, Н. Янги эртақ // Ижод олами журнали. – 2017. – №1. – Б. 34–48.